


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti



rektor

X.B. Yunusov

2024.11.21

08

**BOZORGA ASOSLANGAN BUXGALTERIYA TADQIQOTLARI
ELEMENTLARI**

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Mutaxassisliklar:	70410102	– Iqtisodiyot
	70410201	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand-2024

Fan/modul kodi BABTE2206		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda buxgalteriya hisobiga asoslangan bozor elementlari bo'yicha nazariy bilimlarni hosil qilish, ularni chuqurlashtirish hamda ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat. Fan mazmunini anglab yetish talabalarning shaxsiy fikrlash qobiliyatini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini baholash va fikrlash jarayonlarini o'rganish usullari kabi jihatlar uchun juda muhimdir.</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash jarayoniga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'zmi va ahamiyatini ochib berish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Bozor munosabatlari sharoitida Strategiya, ko'rsatkichlarning muvozanatli tizimi va strategik foydalilik tahlili</p> <p>Strategiyalar va ularni kompaniyalar tomonidan foydalanish uchun tanlanishi. Reinjiniring o'z ichiga oladigan tushunchalar. Istiqbolli ko'rsatkichlarning muvozanatli tizimi tushunchalari. Korxonalar va kompaniyalarning strategiyalari, ulardan barqaror rivojlanish uchun foydalanish. Strategiyani baholash uchun operasion foyda o'zgarishini tahlil qilish, operatsion foydaning o'zgarishiga ta'sir e'tuvchi omillarni aniqlar va boshqaruv qarorlari qabul qilish. Buxgalteriya hisobi va hisoboti axborotlari asosida ishlatilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash va ularni jalb qilish usullari.</p> <p>Buxgalteriya hisobida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlashning zamonaviy usullari. Kompaniyalarda ishlab chiqarish va boshqa hususiyatlarni</p>				

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov, katta o'qituvchi U.T.Eshmuradovlar tomonidan 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun "Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilg'or ishlanma va dasturlarni izchil tatbiq etishni zamonning o'zi taqozo qilmoqda. Bu esa barcha sohada ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash naqadar dolzarb ekanini ko'rsatmoqda.

"Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fani bo'yicha fan dasturi 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada tanlov fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 40 soat ma'ruza, 50 soat amaliy dars va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan bo'lib, fan mazmunini anglab yetish talabalarining shaxsiy fikrlash qobiliyatini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini baholash va fikrlash jarayonlarini o'rganish usullari kabi jihatlar uchun juda muhimdir.

"Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fani dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi. Fan dasturi o'z ichiga 10 ta mavzuni qamrab olib, talabalarga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarga mos keladigan nazariy bilimlarini berish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fan dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, undan 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi talabalarini o'qitishda fan dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi
va statistika" kafedrası mudiri,
i.f.b.f.d. (PhD), dotsent



M.Mardonov

hisobga olgan holda xarajatlar hisobi usullarini tanlash.

2-mavzu. Xarajatlarni taqsimlash usullari hamda ularning samaradorlikni o'lchash va qarorlarni qabul qilishga ta'siri

Resurslarni iste'mol qiladigan faoliyat turlarini aniqlash. Har bir faoliyat turi bilan bog'liq xarajatlarni aniqlash. Xarajatlarni boshqaruv hisobida tashkil etishning usullari va ulardan amaliyotda foydalanish. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va korxonaning daromadi hisobidan qoplanadigan xarajatlar. Xarajatlarni taqsimlash usullari. Xarajatlarni iqtisodiy asoslangan holda taqsimlash va qarorlarni qabul qilish usullari. Xarajatlarni iqtisodiy asoslangan holda taqsimlash usullarining samaradorligini baholash.

3-mavzu. O'zgaruvchan, to'liq tannarh va o'tkazuvchanlik bo'yicha hisoblash usullari, shu jumladan xaziralarni baholashga ta'siri

Qat'iy belgilangan (ishlab chiqarish va foydalanish) xarajatlari. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar mohiyati, hisobga olish va tannarxni hisoblashdagi roli. Birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajat va marjaning ulushi. Marjinal daromad, marjinal foyda hamda ularni aniqlash tartibi. Mahsulot birligida zararsiz sotishdan yuqori ishlab chiqarish darajasi. Ishlab chiqarish zahiralari mohiyati va ular hisobini tashkil etish usullari. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan va qo'shilmaydigan ishlab chiqarish zahiralari sarfi va hisobi. Ishlab chiqarish xaziralarini baholash usullari.

4-mavzu. Turli kalkulyatsiya tizimlari uchun buxgalteriya ilovalari

Moliyaviy ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj. Kompaniyalarda mahsulot tannarxini hisobga olishda foydalaniladigan ma'lumotlar. Tannarxni hisoblash uchun xarajatlarni umumlashtirish, olingan mahsulot (ish, xizmat) lar hajmini hisobga olish o'lchov birliklari. Turli kalkulyatsiya tizimlari sharoitida ichki nazorat va hisobot tizimi. Korxonalarda xarajatlar bilan bog'liq buxgalteriya hisobotlari va ularning turlari. Korxonalarda hisobot tuzish tizimini tashkil etish. Buxgalteriya ma'lumotlari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish modellari.

5-mavzu. Jarayonlarni kalkulyatsiya qilish: FIFO va o'rtacha tortilgan usullar

Kalkulyatsiya qilishning jarayonli usuli, xususiyatlari va tannarxni iqtisodiy asoslangan holda aniqlashdagi roli. Kalkulyatsiya qilishning jarayonli usulida xarajatlar va mahsulot chiqishi hisobini tashkil etish. Xarajat elementlari va moddalar. Jarayonli usulda tannarxni hisoblash tartibi.

Korxonalarning o'zida ishlab chiqarilgan va ta'minot tashkilotlaridan sotib olingan zahiralarni baholash va buxgalteriya hisobidagi xususiyatlari. Zahiralarni tannarhini aniqlashning prinsiplari. Zaxiralarni hisoblash usullari: FIFO va o'rtacha tortilgan.

6-mavzu. Tovar-moddiy boyliklarni buxgalteriya hisobini tashkil etish va inventarizatsiyasining xoriy davlatlar tajribasi

Tovar-moddiy zahiralarni ular bilan ta'minlanish darajasini aniqlash usullari. Tovar-moddiy zahiralarni saqlash. Ombor xo'jaligi hisobi. Tovar-moddiy zahiralarni harakati to'g'risida hisobot. Tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullari va ularni taqqoslash. Inventarizatsiya tushunchasi, maqsadi va tovar-moddiy zahiralarni inventarizatsiya qilish. Inventarizatsiyani rasmiylashtirish, natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.

7-mavzu. Qiymat va daromad o'zgarishini, shu jumladan aralash og'ishlarni hisoblash, buxgalteriyada hisobga olish va tahlil qilish

Korxonalar xarajati va daromadi hamda ularning bir-biriga bog'liq tomonlari va xususiyatlari. Mahsulot (ish, xizmat) bahosi va qiymati. Qiymat harakati. Xarajatlar va daromadlarning mohiyati, shuningdek ularning tebranihlari. Korxonada mahsulot (ish, xizmat) qiymati va daromadidagi og'ishlarni hisoblash va hisobga olish. Daromadlarning paydo bo'lishi va ularni hisoblash, buxgalteriya hisobida hisobini yuritish tartibi. Xarajatlar va daromadlarni tahlil qilishning samarali usullari, shu jumladan aralash tafovutlar. Xarajatlar va daromadlarni tahlil qilish asosida olingan natijalar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

8-mavzu. Davr xarajatlar: hisobi va tahlili

Korxonalarda davr xarajatlarning mohiyati, turlari va xususiyatlari. Korxonaning tashkiliy tuzilishi va ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davr xarajatlarini guruxlash va hisobga olish. Davr xarajatlarini hisobga olish va ularni buxgalteriya hisobida umumlashtirish. Davr xarajatlari hisobi bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish. Davr xarajatlarini hisobdan chiqarish usullari.

Davr xarajatlarini tahlil qilish bo'yicha axborot manbalari; sintetik va analitik hisob ma'lumotlari, tahlil qilish uchun ularni umumlashtirish. Davr xarajatlarini tahlil qilish usullari. Olingan natijalar asosida xulosalarni shakllantirish va boshqaruv xarajatlari qabul qilish. Davr xarajatlarini korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasining professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I. Alikulov, katta o'qituvchi U.T. Eshmuradovlar tomonidan 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun "Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" qonuni qabul qilinib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, bu sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va rivojlangan mamlakatlar ta'lim dasturlarini transformatsiya qilish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoq korxonalari raqobatbardosh malakali kadrlar yetkazib berishdek ustuvor masalalarda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fani muhim ahamiyat kasb etadi.

"Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fani bo'yicha fan dasturi 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada tanlov fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 40 soat ma'ruza, 50 soat amaliy dars va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fani dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi. Fan dasturi o'z ichiga 10 ta mavzuni qamrab olib, talabalarga xalqaro talablarga mos keladigan nazariy bilimlarini berish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Mazkur fan dasturi "Bozorga asoslangan buxgalteriya tadqiqotlari elementlari" fani bo'yicha magistrantlar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda mazkur fan dasturi qo'yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi magistrantlarini o'qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasining mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.N. Toshnazarov



5.	<p>VIII. Kreditarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha tyest yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Karimov A., Ibragimov A., Rizaev N. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. Darslik. -Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2020</p> <p>2. Xasanov B., G'aniyev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2018.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024 yil.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil.</p> <p>3. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. -Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020.</p> <p>4. Tashnazarov. S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. -Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019.</p> <p>5. Xasanov B.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K. Amaliy boshqaruv hisobi. - T.: "Moliya", 2013 yil.</p> <p>6. Colin Drury. Management and Cost Accounting, eighth edition. 2012.</p> <p>Axborot manb'alari</p> <p>1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi</p> <p>2. www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti</p> <p>3. www.norma.uz – axborot-huquqiy portali</p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12"-sonli bayoni bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>A.I. Alikulov – SamDVMChBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori</p> <p>U.T. Eshmuradov – SamDVMChBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. Toshnazarov S.N. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p>2. Mardonov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası mudiri i.f.b.f.d. (PhD), dotsent</p>

<p>9-mavzu. Xarajatlarni boshqarish: sifat, vaqt va cheklovlar nazariyasi</p> <p>Xarajatlarni xo'jalik jarayonlari bo'yicha hisobini tashkil etish va yuritish xususiyatlari. Xarajatlarni boshqarishdagi sifat va vaqt tushunchalari. Sifat menejmentining mohiyati, zururiyati va ahamiyati. Xarajatlarni boshqarishda jarayon nazorati sifat menejmentining asosi sifatida. Xarajatlar samaradorligiga sifat menejmenti ta'sirini o'lchash.</p> <p>Vaqtni boshqarish jarayonini yaratish usullari. Vaqtni samarali boshqarish jarayonining afzalliklari. Cheklash nazariyasi, eng muhim cheklovchi omilni aniqlash uchun metodologiya sifatida.</p> <p>10-mavzu. Ish faoliyatini o'lchash, kompensatsiya va ko'p millatli omillar</p> <p>Moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar. Moliyaviy ko'rsatkichlarning turlar hamda ular ichida moliyaviy natijaning o'rni hamda ko'rsatkichlarini hisoblash usullari. Moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar mohiyati, turlari hamda ularning korxonalarni barqaror faoliyat yuritishdagi roli. Ichki biznes jarayonlarining istiqboli, ish faoliyatini o'lchash. Samaradorlikka ta'sir qiluvchi ko'p millatli omillarni o'lchash.</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. "Strategiya, ko'rsatkichlarning muvozanatli tizimi va strategik foydalilik tahlili. 2. Xarajat va daromad. Xarajatlarni turkumlanishi. 3. Xarajatlarni taqsimlash usullari hamda ularning samaradorlikni o'lchash va qarorlarni qabul qilishga ta'siri. 4. Kompaniyalarda xarajatlari hisobining zamonaviy usullari. 5. O'zgaruvchan, to'liq tannarh va o'tkazuvchanlik bo'yicha xarajatlar va tannarxni hisoblash usullari 6. O'zgaruvchan, to'liq tannarh va o'tkazuvchanlik bo'yicha hisoblash usullarini zaxiralarni baholashga ta'siri. 7. Turli kalkulyatsiya tizimlari uchun buxgalteriya ilovalari. 8. Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilishning an'anaviy usullari. 9. Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilishning zamonaviy usullari. 10. Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilishning "Oddiy" usuli. 11. Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilishning "Bosqichli" usuli. 12. Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilishning "Standart-kost" usuli.
--

13. Xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilishning "Derekt-kost" usuli.

14. Jarayonlarni kalkulyatsiya qilish usullari.

15. Jarayonlarni kalkulyatsiya qilishning FIFO usuli.

16. Jarayonlarni kalkulyatsiya qilishning o'rtacha tortilgan usuli.

17. Tovar-moddiy boyliklarni buxgalteriya hisobini tashkil etishning an'anaviy usullari.

18. Tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasining xorij davlatlar tajribasi.

19. Qiymat va daromad o'zgarishini, shu jumladan aralash og'ishlarni hisoblash va buxgalteriyada hisobga olish.

20. Qiymat va daromad o'zgarishini, shu jumladan aralash og'ishlarni tahlil qilish.

21. Sifat menejment va uning xarajatlar miqdoriga ta'siri.

22. Davr xarajatlari: hisobi va tahlili.

23. Moliyaviy faoliyat xarajatlari va korxona iqtisodiyotiga ta'siri.

24. Xarajatlarni boshqarishda sifat nazariyasi.

25. Xarajatlarni boshqarishda vaqt nazariyasi.

26. Xarajatlarni boshqarishda cheklovlar nazariyasi.

27. Tannarxni boshqarish: mohiyati, zaruriyati va xususiyatlari.

28. Ish faoliyatini o'lchash. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

29. Ichki biznes jarayonlarining istiqboli, ish faoliyatini o'lchash.

30. Kompensatsiya va ko'p millatli omillar.

Amaliy mashg'ulotlar bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan

IV. Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Strategiya, ko'rsatkichlarning muvozanatli tizimi va strategik foydalilik tahlili.
2. Xarajatlarni taqsimlash usullari hamda ularning samaradorlikni o'lchash va qarorlarni qabul qilishga ta'siri.
3. O'zgaruvchan, to'liq tannarh va o'tkazuvchanlik bo'yicha hisoblash usullari, shu jumladan zaxiralarni baholashga ta'siri.

4. Turli kalkulyatsiya tizimlari uchun buxgalteriya ilovalari.

5. Jarayonlarni kalkulyatsiya qilish: FIFO va o'rtacha tortilgan usullar.

6. Qiymat va daromad o'zgarishini, shu jumladan aralash og'ishlarni hisoblash, buxgalteriyada hisobga olish va tahlil qilish.

7. Xarajatlarni boshqarish: sifat, vaqt va cheklovlar nazariyasi.

8. EOQ, JIT va xarajatlarni o'z ichiga olgan inventarizatsiya va ta'minot zanjirini boshqarish.

9. Ish faoliyatini o'lchash, kompensatsiya va ko'p millatli omillar.

10. Xarajat funktsiyalarini miqdoriy tahlil qilish.

11. Zarar, almashtirish va parchalarni hisobga olish.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

3. VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

- tanlangan mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyotning zamonaviy yutuqlarini amaliyotga tadbiq etishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik haqida *tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)*

- mutaxassislikning ilmiy muammolari bo'yicha masalalarni shakllantirish va hal qila olishi, yechim qabul qila olish, bilimlar zahirasini yaratish va undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanishni *bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)*

- tadqiqotlar uslublarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, ilmiy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish bo'yicha hisobotlar va amaliy ko'rsatmalar tuzishi, kasbiy masalalarni kompyuterli modellash uslublari, optimal echimni qidirishning ratsional usullari bilan ishlay olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)*

4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yyechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- so'rov o'tkazish.